ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

ZAMONAVIY XITOY TILIDA “AJDAR” (龙)KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY AHAMIYATI

Nafisa Norbekova
TDSHU, Xitoyshunoslik oliy maktabi
Magistratura1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: DSc. Dotsent **O.M. Ochilov**
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.23944295

Abstrac: This article examines the dragon (龙 lóng) as a central cultural and linguistic symbol of Chinese civilization. Traditional proverbs such as “**不施万丈深潭**计，**怎得**骊龙项**下珠**”, “**神**龙**不**贪**香**饵，**彩**凤**不入雕**笼”, and “**真心**办**道**，**忙**杀**土地**龙**神**” are classified into semantic groups and analyzed. From a linguocultural perspective, 龙 is shown to be a culture-loaded key word in the Chinese language that consistently conveys positive meanings such as power, excellence, vitality, and national identity.

Keywords: Phraseologism, dragon (龙 lóng), linguocultural significance, cultural symbol, Chinese proverbs, conceptual metaphor, culture-loaded word, Chinese mythology

Annotatsiya: Ushbu maqolada ajdar (龙 lóng) Xitoy sivilizatsiyasining markaziy madaniy va lisoniy ramzi sifatida o‘rganiladi. “**不施万丈深潭**计，**怎得**骊龙项**下珠**”, “**神**龙**不**贪**香**饵，**彩**凤**不入雕**笼” va “**真心**办**道**，**忙**杀**土地**龙**神**” kabi an’anaviy maqollar semantik guruhlarga bo‘linadi va tahlil qilinadi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan, 龙 Xitoy tilida doimo hokimiyat, a’lo daraja, hayotiylik va milliy o‘zlik kabi ijobiy ma’nolarni ifodalovchi madaniyat yuklangan kalit so‘z sifatida ko‘rsatiladi.

Kalit so’z: Frazeologizm, ajdar (龙 lóng), lingvomadaniy ahamiyat, madaniy ramz, Xitoy maqollari, konseptual metafora, madaniyat yuklangan so‘z, Xitoy mifologiyasi

Аннотация: В данной статье дракон (龙 lóng) исследуется как центральный культурный и лингвистический символ китайской цивилизации. Традиционные пословицы, такие как «**不施万丈深潭**计，**怎得**骊龙项**下珠**», «**神**龙**不**贪**香**饵，**彩**凤**不入雕**笼» и «**真心**办**道**，**忙**杀**土地**龙**神**», разделяются на семантические группы и анализируются. С лингвокультурологической точки зрения 龙 предстаёт как культурно нагруженное ключевое слово китайского языка, которое всегда выражает положительные значения — власть, превосходство, жизненную силу и национальную идентичность.

Ключевые слова: Фразеологизм, дракон (龙 lóng), лингвокультурологическое значение, культурный символ, китайские пословицы, концептуальная метафора, культурно нагруженное слово, китайская мифология

Frazeologizmlar - xalq tilining keng tarqalgan , ajdodlarning asrlar tajribasidan o‘tgan hayotiy kuzatishlari natijasida vujudga kelgan, tildan-tilga o‘tib sayqal topgan chuqur mazmun, ixcham shakl, ta’sirchan ifodaga ega bo‘lgan erkin so‘z biriklarining ko‘p ma’noda shakllanishdir[1].

[1] АКИМОВ ТАИР. ХИТОЙ ТИЛИДАГИ СОМАТИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР: ШАКЛЛАНИШИ ВА СЕМАНТИКАСИ. –Т.: “BOOKMANY PRINT” , 2022. 45-b

Demak, frazeologizmlar faqatgina lingvistik birlik emas, balkim o‘zida butun bir madaniyatni o‘zida aks ettiruvchi va chuqur ma’noga ega bo‘lgan birlikdir.

Xitoy madaniyatida ajdar (龙, lóng) obrazi — Xitoy sivilizatsiyasining asosiy ramzlaridan biriga aylangan mifologik mavjudot — alohida o‘rin tutadi.[2] U - markaziy madaniy ramz, milliy totem hamda ming yillar davomida xitoy tafakkuri, qadriyatlari va tilini shakllantirib kelgan qudratli kognitiv prototipdir. Xitoy xalqi o‘zini ko‘pincha “ajdar avlodlari” (龙的传人 Lóng de chuánrén) deb ataydi.

Tarkibida “ajdar” so‘zi mavjud bo‘lgan frazeologik birliklari , ayniqsa “中国谚语大辞典”[3] kabi yirik to‘plamlarda qayd etilgan xalq maqollari xitoy frazeologiyasining eng boy va eng madaniy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan guruhlaridan birini tashkil qiladi. Bu birliklar shunchaki afsonaviy hayvonni tsvirlab bermaydi, balkim xitoy lingvomadaniyatining asosiy elementlarini kodlaydi va doimiy ravushda mustahkamlaydi. Ushbu maqolada frazeologik birliklarning lingvomadaniy ahamiyati ko‘rib chiqiladi, unlarning madaniy bilimlari, konseptual metaforalar, ijtimoiy qadriyatlar va jamoaviy o‘ziga xoslik tashuvchisi sifatida qanday ishlashiga e’tibor qaratiladi.

Madaniy kalit sifatida ajdar ramzi

Xitoy yozuvi madaniy doirasida ajdar xitoy mifologiyasi va xalq og‘zaki ijodidagi afsonaviy mavjudot hisoblanadi. Ajdar turli hayvonlarg o‘xshash shakllarga ega bo‘lishi mumkin : masalan, toshbaqa yoki baliqsimon, lekin ko‘pincha to‘rt oyoqli ilon shaklida tasvirlanadi. “Erya yi”[4] kitobida aytilishicha: «Shoxi kiyiknikiga, boshi tuyanikiga, ko‘zi quyonnikiga, bo‘yni ilonniki, qorni dengiz molyuskasiga, tangachalari baliqnikiga, tirnoqlari burgutnikiga, panjalari yo‘lbarsnikiga, quloqlari sigirnikiga o‘xshaydi». “Lunheng”[5]da esa: «Oddiy odamlar ajdahoni ot boshi va ilon tanasi bilan chizadilar» deb yozilgan. An’anaga ko’ra, ajdar qudratli, ezgulik va qud-baraka ramzi hisoblangan, qadimgi davrlarda esa , asosan imperatorlik hokimiyatini anglatgan[6]. Lingvomadaniy nuqtai nazardan, 龙 klassik madaniyat yuklangan kalit so‘z hisoblanadi.[7]. Ko‘plab xitoy maqollari va iboralarida ajdar o‘rin oladi, masalan ”turg‘un suvni ajdarni maskan tutmas” (“死水不藏龙”) , ajdar ummon bilan, yo‘lbars tog‘ bilan” (“神龙得水，猛虎逢山”) , “ajdarga gavhar qadrli, qaqnusga xazina, sigirga esa ko‘k o‘t” (“龙眼识珠，凤眼识宝，牛眼识青草”).

Ajdar “龙“ komponentini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklarning asosiy semantik-madaniy guruhlari

Iste’dod, yuksak mahorat va muhit

死水不藏龙 (Sǐshuǐ bù cáng lóng)– ko’lmakni ajdar maskan tutmas.

死水 (sǐshuǐ) – turg‘un, oqmaydigan suvni bildirsa, 龙 (lóng) – kuchli energiya va shiddatli harakat ramzidir. Ya’ni harakat bo‘lmagan joyda buyuk hodisalar ham yuz bermaydi, buyuk natijalarga ham erishib bo‘lmaydi.

神龙得水，猛虎逢山 (Shénlóng dé shuǐ, měnghǔ féng shān) – ajdar ummon bilan, yo‘lbars tog‘ bilan.

---

[2] Wen X., Chen C. Cultural conceptualisations of loong (龙) in Chinese idioms // Review of Cognitive Linguistics. 2021. Vol. 19, No. 2. P. 563–589.

[3] 温端政. 中国谚语大辞典. – 上海: 上海辞书出版社, 2011. – 1398 页.

[4] 罗愿. 尔雅翼 // 宋元笔记小说大观. – 上海: 上海古籍出版社, 2001. (宋 罗愿 撰).

[5] 王充. 论衡. 龙虚篇 // 诸子集成. – 北京: 中华书局, 1954.

[6] Структура концепта «дракон / 龙 lóng» в китайской лингвокультуре // Вестник Чувашского государственного педагогического университета.

[7] Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – Москва: Русский язык, 1990

神龙 (shénlóng) – xitoy mifologiyasida osmon va yerning oliy hukmdori, yo‘lbars esa tog‘lar va o‘rmonlarning shohi va kuchli jonzotdir. Ular o‘zlarining haqiqiy qudratini faqat tabiiy yashash joylarida namoyon qila oladilar. Bundan ma’lum bo‘ladiki, bu maqol inson o‘z iste’dodini namoyish etishi uchun o‘ziga mos muhit kerakligini tasvirlaydi.

龙**不**离**海**，**虎不**离**山** (Lóng bùlí hǎi, hǔ bùlí shān) – ajdar dengizdan kechmas, yo‘lbars tog‘idan.

Ajdar va yo‘lbars xitoy madaniyatida kuch va yetakchilikni ramziy ma’noda anglatadi. Ajdar suvsiz, yo‘lbars esa tog‘lar yoki o‘rmonlarsiz o‘z salohiyatini saqlab qololmaydi. Ular o‘zlari yashashga ko‘nikib qolgan makondan ayrilganda zaiflashadi. Masalan, imperator o‘z imperiyasidan ayrilganda kuchsizlanganidek.

Nasl-nasab, tarbiya

龙**生**龙**子**，凤**生**凤**儿** (Lóng shēng lóng zǐ, fèng shēng fèng er) – Ajdardan ajdar tug‘ilur, qaqnusdan – qaqnus.

龙 – ajdar va 凤 – qaqnus xitoy madaniyatida eng oliy, eng olijanob va eng kuchli ramzlardir. Bu ramzlar irsiyat, nasab va sulolaning bolaning rivojlanishiga ta’sirini anglatadi.

龙**眼**识**珠**，凤**眼**识**宝**，**牛眼**识**青草** (Lóngyǎn shì zhū, fèng yǎn shì bǎo, niú yǎn shì qīngcǎo) – ajdar gavharni ko‘radi, qaqnusga xazinani, sigirga esa ko‘k o‘tin.

Bu maqol aqlli odamlar nima qimmat ekanligini bilishini, aqlsizlar esa bilmasligini metafora sifatida ifodalaydi. Ya’ni yuksak aql va qalb egalari qimmatli va teran narsalarni qadrlasa, tor fikrli kishilar faqat jo‘n va maishiy narsalarni ko‘ra oladi.

神龙**不**贪**香**饵，**彩**凤**不入雕**笼 (Shénlóng bù tān xiāng ěr, cǎi fèng bù rù diāo lóng) – Ilohiy ajdar xushbo‘y yemga ochko‘zlik qilmaydi, qaqnus esa bezakli qafasga kirmaydi

Bu maqol olijanob va yuksak ma’naviyatli kishilarning past narsalarga, yolg‘on jozibalarga berilmasligini ifodalaydi.

Muvaffaqiyat uchun kerakli qobiliyat va jasorat

不施万丈深潭计，**怎得**骊龙项**下珠** (Bù shī wànzhàng shēn tán jì, zěn dé lí lóng xiàng xià zhū) – Agar o‘n ming quloch chuqurlikdagi hovuzga tushish rejasini qo‘llamasang, qora ajdarhonning bo‘ynidagi marvaridni ololmaysan

Bu maqol agar inson tavakkal qilmasa, o‘ylab ish tutmasa yoki qattiq mehnat qilmasa – qimmatbaho narsaga yoki ulkan muvaffaqiyatga ega bo‘la olmasligini ifodalab kelmoqda.

真心办**道**，**忙**杀**土地**龙**神** (Zhēnxīn bàn dào, máng shā tǔdì lóng shén) – Chin yurakdan yo‘l tutsang, ajdar ham xizmatingda bo‘lur

土地龙神 (tǔdì lóngshén) – Xitoy an’anaviy mifologiyasi hamda daosizm kosmologiyasidagi makon posboni bo‘lgan makon/yer ilohi (**土地神** – tǔdì lóngshén) va suv/havo muvozanatini idora etuvchi Ilohiy Ajdar (龙**神** – lóngshén). Inson samimiy va xolis niyat, yuksak e’tiqod hamda ixlos bilan biror savobli yoki ezgu ishga kirishsa, butun koinot, tabiat qonuniyatlari ham unga yordamga shoshilishini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy ajdari (龙) oddiy mifologik mavjudot emas – u Xitoy sivilizatsiyasida kuch, yaxshilik, hayotiylik va milliy o‘zlikning asosiy madaniy va lisoniy ramzidir. Ajdar qimmatli maqsadlar, olijanob xarakter va ruhiy kuch metaforasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu iboralar katta muvaffaqiyatlarga erishish uchun jasorat, samimiylik va axloqiy poklik zarur ekanligi haqidagi chuqur madaniy e’tiqodni ifodalaydi. Xitoy tilida u doimo ijobiy ma’nolarni – a’lo daraja, hokimiyat, omad va milliy g‘ururni bildiradi. Bu Xitoy ajdahosi faqat ertaklar yoki san’atdagi ramz emas. U tilda yashaydi, tafakkurni shakllantiradi va Xitoy jamiyatida intilish, qadr-qimmat va madaniy ishonch ruhini ifodalashda davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – Москва: Русский язык, 1990.
2. 罗愿. 尔雅翼 // 宋元笔记小说大观. – 上海: 上海古籍出版社, 2001. (宋 罗愿 撰).
3. 温端政. 中国谚语大辞典. – 上海: 上海辞书出版社, 2011. – 1398 页.
4. Wen X., Chen C. Cultural conceptualisations of loong (龙) in Chinese idioms // Review of Cognitive Linguistics. 2021. Vol. 19, No. 2. P. 563–589.
5. АКИМОВ ТАИР. ХИТОЙ ТИЛИДАГИ СОМАТИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР: ШАКЛЛАНИШИ ВА СЕМАНТИКАСИ. –Т.: “BOOKMANY PRINT” , 2022. 45-b